

## ALISHER NAVOIYNING HIKMATLI SO`ZLARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MA`NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Mirzayeva Zulxumor G`aybullayevna

,,Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim” fakulteti, maktabgacha ta`lim yo`nalishi, 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Axloqiy tarbiya berishda maktabgacha ta`lim sohasida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu vazifada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni axloqiy jihatdan tarbiyalash zarurligi ta`kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** axloq, odob, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axloqiy ong, axloqiy xulq atvor, ma’naviy - axloqiy rivojlanish, axloqiy his-tuyg’u, tasavvur, madaniy xulq-atvor.

### KIRISH

“Axloq” atamasi lotincha “moros” so'zidan olingan bo'lib, axloqiy ma'noni anglatadi va ijtimoiy nutqda qat'iy ta'riflanmagan. Kundalik inson hayotida u standart (axloqiy me'yorlardan) bo'lib xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning asosiy normalarini tashkil etadi. Axloqiy tarbiyada har qanday vaziyatda ham ushbu me'yorlarga to'g'ri amal qila oladigan shaxslar axloqiy tarbiyalangan deb hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishilar barqaror axloqiy motivlarga ega. Bu motivlar ularni jamiyatda munosib xulq-atvorga undaydi. Yosh avlodni ijtimoiy integratsiyaga, mehnatsevarlikka, o‘z-o‘zini hurmat qilishga undaydigan axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash axloqiy tarbiyaning pedagogik-psixologik asoslarini chuqur anglashni taqozo etadi. Axloqiy bilimlarni egallah bolalarga yaqin atrofdagi xatti-harakatlarining ijobiy va salbiy tomonlarini farqlash imkonini beradi.<sup>13</sup>

Maktabgacha ta`lim muassasalarida odob va axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yish tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Axloqiy tarbiya tashkiliy, tarkibiy, munosabatlar va dialektik xususiyatlar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, shaxsning axloqiy etukligini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bolalarga axloqiy tarbiya odob-axloq munosabatlarning mohiyati to'g'risida tizimli ravishda tashkil etilgan bilimlarni berishni, axloqiy va axloqiy bilimlarni egallahsga bo'lgan ehtiyojni qondirishni, axloqiy munosabatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi va ular samarali, izchil va tizimli ravishda rivojlanishi kerak.

Shunday ekan, bolalarni yaqin atrofdagi xatti-harakatlarining ijobiy va salbiy tomonlarini farqlashga o'rgatish ularning axloqiy rivojlanishiga yordam beradi. Turli yosh davrlarida axloqiy tushunchalarning shakllanish darajasi har xil. Masalan:

<sup>13</sup> F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. “Maktabgacha pedagogika”. - T., "Ma'naviyat". 2013

1. Axloqiy ong
2. Axloqiy qadriyatlar
3. Axloqiy hissiyotlar

Husayn Koshifriyning “Axloqi Muhsiniy” asari shaxsiy, oilaviy, fuqarolik axloqiy tamoyillarini qamrab olgan. U 40 bobdan iborat bo‘lib, unda muallif adolat, sabr-toqat, kechirimlilik, hayo, odob, ishonch, va’dani bajarish haqida gapiradi.<sup>14</sup>

Jaloliddin Davoniyning “Axloqi jaloliy” asarida axloqiy masalalar ijtimoiy-falsafiy mazmunda tahlil qilingan. Muallif Arastu, Aflatun, Abu Nasr Forobi va Ibn Sinoning axloqiy ta’limotlaridan foydalanadi. Uch qismga bo‘lingan birinchi bo‘limda axloqiy tarbiya va axloqiy fazilatlarni egallash haqida so‘z yuritilib, axloqning asosiy tushunchalari: halollik, adolat, hayo tushunchalari ko‘rsatilgan. Ikkinci bo‘lim oila va maishiy hayotga bag‘ishlangan bo‘lib, bola tarbiyasi, kamolotni tarbiyalash, ko‘nikma va kasb-hunar egallashga urg‘u beriladi. Uchinchi qism ijtimoiy va siyosiy masalalarga bag‘ishlangan.

Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul-haqqoyiq” asari ma’rifiy-axloqiy nuqtai nazardan yozilgan bo‘lib, ilm, adolat, saxovat kabi fazilatlarni ulug‘laydi, insoniyat kamolotini yuksaltirishga da’vat etadi.

O‘zining olijanob fe’l-atvori bilan mashhur bo‘lgan Amir Temur o‘z rahbarligida ham mansabdor shaxslarni tayinlashda ham, ularni ishdan bo‘shatishda ham insof va adolatparvarlik ko‘rsatdi. Uning odob-axloq va hayratga loyiq fazilatlar haqidagi fikrlari zamon talablari bilan hamohangdir.

Sohibqiron Amir Temurning o‘z xalqiga cheksiz sadoqati, xalqi ravnaqi yo‘lidagi fidoyiligi, ozodlik tarafdoi, yuksak ma’naviy-axloqiy me’yorlari Amir Temur vasiyatlaridan yaqqol ko‘rinadi: “Millatning yarasini davola, Ojizni asra, kuchliga zulm qilma. Adolat va erkinlik sizning asosiy tamoyillaringiz bo‘lsin.”

Maktabgacha ta’lim tizimi ta’limning birlamchi bo‘g‘ini egallaydi. Mutaxassislar ilmiy xulosalarga ko‘ra, inson umri davomida qabul qiladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Bu sababli, maktabgacha ta’lim-tarbiya bolani sog‘lom, bilimli bo‘lib voyaga yetishida ahamiyatga ega. Pedagogika fani yosh avlodning axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta’limni muhim omil deb hisoblaydi. Bu davrda ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim-tarbiya ta’siri davlatning axloqiy sifatlarini shakllanishiga olib keladi.

Insonparvarlik hissini tarbiyalash axloq normalari va qoidalarini o’rgatish asosida rivojlanadi. Bu, bolalarni yaxshi ishlar qilishga o’rgatib borish va ularning yoshini e’tiborga oladi. Ularga insonparvarlikni o’rgatish uchun quyidagi tushunchalar ko‘rsatiladi: boshqalar bilan adolatli munosabatlar, o‘z o’rtog‘iga qadrlash, yordam berish, va xizmat ko‘rsatish.

<sup>14</sup> Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta’lim pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.

Kamtarlik, to'g'rilik, halollik, va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash muhimdir. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Ammo, bu xususiyatlar eng avvalo bolalarga ta'lim berish orqali o'rgatiladi, va ularga kamtarlik hissini shakllantirish, manmanlik, takabburlik, va maqtanchoqlikni yo'qotish kerak.

Bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun ko'rishga urinadilar va ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanishni qadrlaydilar. Bu holatda bolalarga o'z-kasb mahoratlarining zarur va muhimligi aniq misollar bilan tushuntiriladi. Sofdillik va rostgo'ylikni tarbiyalash yolg'onchilik va vijdonsizlikning oldini oladi va ularga o'zlarini boshqalardan ustun ko'rishni o'rganish kerak.<sup>15</sup>

Bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadi. Ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday holatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Sofdillik va rostgo'ylikni tarbiyalash, yolg'onchilik va vijdonsizlik paydo bo'lishining oldini olish va unga qarshi kurash uzviy bog'liqdir.

Vatanga muhabbatni rivojlantirish. Vatanga muhabbat – eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshdagি bolalarda kattalar tomonidan ularning ruhiy taraqqiyoti va tafakkurining aniq hamda obrazliligini e'tiborga olgan holda shakllantirib boriladi. Shuning uchun bu ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tushuntirib boriladi.

Baynalmilal tarbiya. Maktabgacha yoshdagи bolalarda baynalmilalchilik – xalqlar do'stligi hissini rivojlantirish muhimdir. Buning asosida ularda boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi. Maxsus mashg'ulotlarda ularning urf-odatlari, madaniyati, san'ati, tabiatni to'g'risidagi adabiyotlarni o'qib berish, suhbat o'tkazish, rasmlar ko'rsatish, mavzu yo'nalishida filmlar namoyish etish, millat bolalari hayoti to'g'risida hikoyalar o'qib berish foydali bo'ladi.<sup>16</sup>

Bolalar jamoasining shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar:

- MTM xodimlarining ahil jamoasi mavjud bo'lishi;
- bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish;
- o'yinchoqlarning bolalar yoshi va qiziqishiga mos kelishi;
- bolalarda o'zaro ahillik, g'amxo'rlarlik, jamoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg'ulotlar;
- qiziqarli faoliyat turlarini tashkil etib borish;
- oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish;
- bolalar muassasalarida ijobiy xayrxohlik muhitini yaratish.

Bolalar ota-onalari bilan birga ishlash muhimligini tushunishlari va har bir kasbning qadrini bilishlari kerak. Ularni ota-onasining kasbi uchun boshqalarni

<sup>15</sup> N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashiroti T.; 2013 y

<sup>16</sup> Волотина Л.Р. Дошкольная педагогика М. Лавиринт. 2005г

kamsitmaslik yoki tengdoshlariga past nazar bilan qaramaslik va o'zlari bilan maqtanmaslikka o'rgatish kerak. Bolalarni mehr-oqibat va halollikka o'rgatish yolg'on va vijdonsizlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga empatiyani rivojlantirish va o'zlarini boshqalarning o'rniga qo'yishga o'rgatish orqali erishiladi. Ba'zi bolalar kattalardan eshitganlarini ko'rsatish, eshitgan iboralarni taqlid qilish orqali boshqalarni hayratda qoldirishga harakat qilishlari mumkin. Bunday hollarda ularni maqtanishga emas, balki tinglash va o'rganish muhimligini tushunishga o'rgatish muhimdir. Shunday ekan, axloqiy tarbiyaning bolalar xarakterining ijobiy namunalarini va ularning rivojlanish xususiyatlarini hisobga oladigan samarali usullarini qo'llash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. "Maktabgacha ta'lif- tarbiya to'g'risida"gi Qonun., -T.; O'zbekiston. 2020 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat". 2013
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika. T.; O'qituvchi, 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta'lif pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.
5. Sh.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalar" T.: 2013 y.
6. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashiroti T.; 2013 y
7. Волотина Л.Р. Дошкольная педагогика М. Лавиринт. 2005г